

KIMYO DARSLARIDA ISHBILARMONLIK O`YINLARIDAN FOYDALANISH

Tashmatova Rahima Vahobovna, dots. k.f.n.,

Samarqand davlat universiteti

Ruziev Ilyos Xakimovich, ass. PhD,

Samarqand davlat universiteti

Tog'ayeva Maftuna Akramovna

I-bosqich magistranti, SamDU O'z-Finlyandiya pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Bu maqolada kimyo darslarida ishbilarmonlik o`yinlaridan foydalanishning didaktik sharoitlari, y`ani iShbilarmonlik o`yinidagi faoliyat bosqichma – bosqich rivojlantirilishi, o`yin uchun konflikt holatlar mavjudligining zarurligi, o`yin davomida o`quvchilarning o`zaro faoliyati e`tiborga olinishi, o`yin vaqtini nazorat qilish lozimligi, o`yinda musobaqa elementlari mavjud bo`lishi, o`yin natijalarini baholashi lozimligi haqidagi ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: *ishbilarmonlik, konflikt, musobaqa, didaktik, innovatsiya, texnologiya, muloqat, ko`nikma.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются дидактические условия использования деловых игр на уроках химии, т.е. постепенное развитие деятельности в деловой игре, необходимость конфликтных ситуаций для игры с учетом взаимодействия учащихся во время игры. о необходимости контроля времени игры, наличии в игре элементов соревнования, необходимости оценки результатов игры.

Ключевые слова: *бизнес, конфликт, конкуренция, дидактика, инновации, технология, коммуникация, мастерство.*

ABSTRACT

This article discusses the didactic conditions for the use of business games in chemistry lessons, ie the gradual development of activities in the business game, the need for conflict situations for the game, taking into account the interaction of students during the game, There is information about the need to control the time of the game, the presence of elements of competition in the game, the need to evaluate the results of the game.

Keywords: business, conflict, competition, didactic, innovation, technology, communication, skill.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda kimyo fanini rivojlantirish, ushbu yoʻnalishda taʼlim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish “Ilm, maʼrifat va raqamli iqtisodiyot yili” Davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilangan.

Zero, yoshlarimizni kimyo fani boʻyicha chuqur oʻqitish hududlarda yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, togʻ-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turtki beradi hamda xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, rivoglanayotgan oʻqitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qoʻllash oʻqituvchining darsda erishayotgan natijalarining samaradorligiga ijodiy yondoshish daragasini belgilaydi. Shuning uchun biz kimyo darslarida ishbilarmonlik oʻyinlaridan foydalanishning didaktik sharoitlarini koʻrib chiqishni maqsad qilib oldik.

Birinchidan, real hayotdagi professional hayotni imitatsiya etuvchi sharoitlarni oʻyin davomida modellashtirish kerak. Ishbilarmonlik oʻyinlarining asosiy maqsadi murakkab tizimlarni boshqarishda qaror qabul qilishga oʻrgatishdir. Qaror qabul qilish yoki tanlov istalgan faoliyatga xos boʻlgan harakat boʻlib, u faoliyatda muayyan maqsadni belgilaydi. Toʻgʻri qaror qabul qila olish insonda hayotiy tajriba orqali (sinov va xatoliklar) yoki oʻqitishning maxsus usullari yordamida, shu jumladan oʻyinlar orqali ham shakllantiriladi.

Ishbilarmonlik oʻyinida yaratilgan shartli ishlab chiqarish modelini oʻzgartirishlar bilan boʻrttirish kerak emas, ular reallikka maksimal darajada yaqinlashgan hamda ikkilamchi alohida holatlardan holi boʻlishi lozim, chunki ular oʻyin jarayoniga muhim taʼsir oʻtkaza olmaydi. Misol uchun zavod sexi modelini toʻlaligicha yaratish shart emas. Oʻyin boshida sex koʻrinishini tasvirlab berish yetarlidir, chunki shuning oʻzi oʻquvchi yoshlarda muayyan psixologik maqsadni belgilaydi. Soʻngra esa oʻyinda oldindan rejalashtirilgan holatlarni kiritib, oʻquvchi yoshlarga oʻyin vazifalarini berib borish lozim.

Ikkinchidan ishbilarmonlik oʻyinidagi faoliyat bosqichma – bosqich rivojlantiriladi. Oʻyin bosqichlari oʻzaro bogʻliqdir, shu sababli boshlangʻich bosqichlarda olingan oʻquvchi yoshlarning qarorlari keyingi bosqich harakatlariga

ta'sir o'tkazadi. Mazkur bosqichda belgilangan vazifani yechimi optimal varianti ishtirokchilarni fikrlash faoliyatini stimulyatsiya etib, ularda o'z- o'zini boshqarish hamda xatoliklarni tuzatish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Uchinchidan ishbilarmonlik o'yini uchun konflikt holatlar mavjudligi zarurdir. Ular ishbilarmonlik o'yiniga xos bo'lib, uning rivojlanishi jarayonida ham yuzaga keladi yoki o'yin rahbari tomonidan yaratilib undan o'quv maqsadlari kelib chiqadi.

Bunda holatlar murakkablashtirilishi yoki o'zgartirilishi, qo'shimcha vazifalar kiritilishi mumkin bo'lib, buning natijasida o'yin qatnashchilarida yangi sharoitlarda qaror qabul qila olish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Ishbilarmonlik o'yini davomida konfliktlar professional tavsifga ega bo'lgan bahs va munozaralar ko'rinishida o'tadi, buning natijasida o'yin qatnashchilari turli muammolarni hal etishadi hamda o'yin sharoitlari o'zgargan taqdirda zarur qaror qabul qilish ko'nikmasi hosil bo'ladi. O'yin rahbari tomonidan rejalashtirilmagan konflikt holatlar ham yuzaga kelishi mumkin, bunday holatlarning yuzaga kelishiga o'sha vazifa bajarilishi davomida qarama-qarshi guruh tomonidan beriladigan yechimning turli variantlari asos bo'lishi mumkin.

Bunday holatda o'qituvchining vazifasi o'quvchi yoshlarning to'g'ri qaror qabul qilishini hamda bajarilayotgan ish ob'yektiv tahlilini nazorat etishdan iborat bo'ladi. Zarur bo'lganda esa yangi yechimning optimal varianti topiladi.

To'rtinchidan ishbilarmonlik o'yini davomida o'quvchi yoshlarning o'zaro faoliyati e'tiborga olinishi kerak. Bilim olish o'yini mazmuni uning qatnashchilari orasida yuqori darajadagi muloqotni ta'minlashi zarur bo'lib, bunga o'rganilayotgan ob'yektning har tomonlama uslubi hamda vazifa yechishning optimal variantini izlash o'rganilayotgan materiallar muammoli bo'lishi orqali erishilishi mumkin.

Muammoli holatlar konflikt holatlarga aylanib, ulardan chiqish yo'li jamoaviy hamkorlik orqali izlab topilishi mumkin bo'lib, bunda boshqa ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan variantlar guruh manfaatlarida himoya qilinishi yoki tanqid etilishi mumkin. Shu jihatdan ishbilarmonlik o'yini, nima, qayerda, qachon television o'yinini eslatadi.

Unda tasodifiy kelib chiqqan masalaga javob izlash barcha ishtirokchilarning to'g'ri javobdan manfaatdorligi o'qibatida izlanadi. Bunda ajratilgan vaqt kam bo'lib, bunda muayyan ishtirokchi jamoa oldida o'z javobi tog'riligini isbotlab berishi lozim bo'ladi.

Bilim olish o'yini o'qitishning tanlab olingan uslubi asosida kuchli tarbiya usuliga ham aylanadi, bilim oluvchining o'quv faoliyati uning uchun ijtimoiy jihatdan muhim bo'ladi. Bunday o'yin davomida kuchli va kuchsiz o'quvchi yoshlar orasidagi

to'siqlar yechiladi, o'quvchi va o'qituvchi orasidagi tasnifiy devor qulaydi, avvalo o'qituvchi rollarini o'zi istagan tartibda ajratib berishi muhim bo'lib, bunda u o'quvchilarning fe'l- atvoridan kelib chiqishi mumkin, ammo kelgusida u bu ishni o'quvchilarning fikriga yondoshgan holda bajaradi, chunki o'yinda insonning kutilmagan fe'l-atvorlari namoyon bo'lishi mumkin.

Ishbilarmonlik o'yinida rollarning miqdori va belgilanishidan qat'iy nazar, o'yinda kollektivning o'zaro hamkorligi aks etishi lozim, aynan shu hamkorlik u yoki bu professional faoliyat bilan band bo'lgan insonlar orasidagi real munosabatlarni imitatsiya etadi.

Beshinchidan o'yin vaqtini nazorat qilish lozim. O'yin vazifalarini bajarishga belgilangan vaqt nazorati ishbilarmonlik o'yinining majburiy sharti bo'lib, u o'quvchi yoshlarni tartiblashtiradi, professional tavsifdagi vazifalarni qisqa muddatda bajarishga undaydi.

Oltinchidan ishbilarmonlik o'yinida musoboqaviylik elementlari mavjud bo'ladi. Musobaqa ishbilarmonlik o'yinining muhim elementi bo'lib, u o'yinning to'g'ri borishini ta'minlaydi. G'alaba qozonish, o'zini yaxshi tomondan ko'rsatish, iroda va bilimlarini mobilizatsiya eta bilish o'quvchi yoshlarning e'tiborini kuchaytiradi, axborot almashinishga undaydi va guruh o'yinchilarini birlashtiradi.

Yettinchidan ishbilarmonlik o'yini natijalari baholanishi lozim. Fanni dars berish faoliyati sharoitlarida o'quvchi yoshlarning bilim olishini dars davomida baholash, ularni rag'batlantirish va jarima qilish muhim bosqichdir. O'yin qatnashchilari ishini baholash o'qituvchi zimmasida bo'ladi. Ammo buning uchun guruh o'quvchilari qatoridan ekspert guruhini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guruh va hakamlar o'yin boshlanishidan oldin qoidalar bilan tanishishadi va o'yin davomida unga amal qilishadi. Ammo ba'zi bir rolli o'yinlar tashkillashtirish bo'yicha to'xtalib o'tamiz. Dars tayyorlash jarayonida, ya'ni rolli o'yinni tashkillashtirish davomida o'qituvchi birinchi navbatda taxminiy turli kasb mutaxassislari mehnatini tavsiflovchi kasbiy majburiyat, ko'nikmalar, bo'limlar ro'yxati bilan tanishib chiqadi va mazkur dars vositalari yordamida yechilishi lozim bo'lgan vazifalar doirasini belgilaydi. Vazifalar yo'riqnoma ko'rinishida tuzilishi maqsadga muvofiq bo'lib, ular o'z ichiga kasbiy majburiyatlar ro'yxati, asosiy vazifalar va ko'nikmalar ro'yxati kirishi shart. Bundan tashqari katta tashkiliy ishlar ham amalga oshiriladi. O'yin ishtirokchilari plakatlar, grafiklar chizishadi.

Kimyo xonasida ishchi stendlar osilib, ularda dars mavzusi bo'yicha axborot yoritiladi hamda muayyan ishlab chiqarish, unda faoliyat ko'rsatadigan ishchilar (mazkur mutaxassislarni tayyorlovchi o'quv yurtlari, kollej, OTMLar manzillari),

korxonalar rekonstruksiyasining asosiy yoʻnalishlarini aks ettiruvchi jadvallar keltiriladi. Oʻqituvchida oʻyin ssenariysi va oʻyin davomida yechilishi lozim boʻlgan muammolar roʻyxati boʻlishi shart: oʻqituvchi oʻyinning faol qatnashchisi sifatida oʻyinni u yoki bu muammoviy konflikt holatini yaratishga yoʻnaltiradi. Bundan tashqari oʻqituvchining qoʻlida oʻyin davomida kiritilishi lozim boʻlgan tushunchalar, qonuniyatlar, nazariya, formulalarning oldindan tayyorlangan roʻyxati boʻlishi kerak. Masalan, misol uchun mineral oʻgʻitlar mavzusiga bagʻishlangan rolli oʻyinni keltiramiz. Dars oldindan tayyorlanadi. Sinf quyidagi mutaxassislik boʻyicha beshta guruhga boʻlinadi: kimyogarlar, biologlar, texnologlar, agronomlar, ekologlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Olimlarning har bir guruhi, oʻz mutaxassisligi nuqtai nazaridan mineral oʻgʻitlar haqidagi materialni oʻrganadi, uni darsga maʼruza sifatida tayyorlaydi. Buning uchun muayyan materiallarni tanlab oladi va mavzu boʻyicha oʻquvchi yoshilar uchun savollarni shakllantiradi.

Darsda quyidagi maʼruzalar eshitiladi: birinchidan, kimyogar olimlarning, “Mineral oʻgʻitlar klassifikatsiyasi” nomli maʼruzasi mineral oʻgʻitlar kolleksiyasi demonstratsiyasi bilan birgalikda oʻqib eshittiriladi va mineral oʻgʻitlarning oziq elementlari miqdori keltirilgan jadval koʻrsatiladi. Ikkinchidan mineral oʻgʻitlarni ishlab chiqarish uchun kerak boʻlgan xomashyoga doir geologlar maʼruzasi tabiiy qazilmalarning Oʻzbekiston xaritasi boʻyicha konlarining koʻrsatilishi bilan amalga oshiriladi.

Mineral oʻgʻitlar ishlab chiqarilishi (texnologlar maʼruzasi) kimyoviy reaksiyalar tenglamalari haqidagi hamda mineral oʻgʻitlar ishlab chiqarilishi haqidagi maʼlumotlar bilan toʻldiriladi. Mineral oʻgʻitlar ahamiyati (agronomlar maʼruzasi) oʻsimliklar faoliyatidagi mineral oʻgʻitlarning rolini koʻrsatuvchi plakatlarni bilan birgalikda namoyish etiladi.

Mineral oʻgʻitlarni ishlab chiqarish va qoʻllash bilan bogʻliq boʻlgan ekologik muammolar (ekologlar maʼruzasi) haqidagi maʼlumotlar beriladi. Darsda mineral oʻgʻitlarni aniqlashga doir laboratoriya ishi oʻtkazilishi koʻzda tutilgan. Mutaxassislarning har bir guruhiga uchtdan mineral oʻgʻit beriladi. Vazifa: ularni aniqlash, uni qanday amalga oshirish haqida guruhga aytib va koʻrsatib berishdan iborat. Dars davomida ishtirokchilarning faolligini oshirish uchun mutaxassislarning har bir guruhi boshqa guruhlarga oldindan tayyorlangan munozarali savollarni berishadi. Oʻqituvchi zarur paytlarda ishtirokchilarga umumlashtiruvchi tavsiflarga ega boʻlgan savollar berishi mumkin. Bunda turli didaktik maqsadlarda, yaʼni oʻquvchi yoshlarning oʻqish jarayonini motivatsiya etish maqsadida darsda

qo`shimcha sifatida u yoki bu ma`ruza oldidan muammoviy masala sifatida, shu bilan birgalikda o`rganilgan materialni mustahkamlash maqsadida ham kimyoviy topishmoqlarni berish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, birinchidan dalalarda vitamin, omborlarda huddi mina(selitra) non yopib bo`lmas, sepmasa hosil bo`lmas (fosforit uni) unda uchdan biri azotdan, dehqon halos azobdan (ammiak selitrasi). Bunday darsda har bir ishtirokchi o`zini u yoki bu jihatdan ko`radi (mustahkam bilimga ega mutaxassis olim, yaxshi notiq, tadqiqotchi eksperimentator yoki rassom). O`qituvchining vazifasi har bir ishtirokchi darsga qanday hissa qo`shganligini ko`rib uning bilimini to`g`ri baholashdan iboratdir. Tajribalarning ko`rsatishicha o`quvchilar uchun ijobiy baho salbiy bahodan ko`ra ta`sirliroqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, o`yinli usulini o`quv jarayonida, bundan tashqari, har bir holatda emas, balki tizimli ravishda kengroq qo`llash kerak. Darsda didaktik o`yinlardan tizimli maqsadli foydalanishgina o`quvchi shaxsining asosiy sifatlarini o`zgartirishda ham, o`quv faoliyati samaradorligini oshirishda ham, umuman o`qitishda ham ma`lum natijalar berishi mumkin.

REFERENCES

1. Александрова Т.К., Нефедова В.Е., Федорова Ж.В. Игра как средство активизации учебно-познавательной деятельности учащихся // Химия в школе. - 1989. - №2. - с.79-63.
2. Жарова Л. В. “ Учить самостоятельности ” – М.:Просвещение, 1993.
3. Azizxo`jaeva N.N. Pedagogic texnologiyalari va pedagogic mahorat . Toshkent-2006.74 bet.
4. Голиш Л.В.Технология обучения на лекциях и семинарах ;Учебное пособие.Под общ.ред.акад.С.С.Гулямова.-Т.: ТГЕУ,2005.44с.